

“TASDIQLAYMAN”
Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi
fakulteti dekani

M. Chorshanbiyev

O‘zMU Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti
Jurnalistika kafedrası
Axborot xizmatlari va jamoatchilik bilan aloqalar yo‘nalishi
1-kurs o‘zbek guruhi talabalari uchun

“Jamoatchilik bilan aloqalar va reklama nazariyasi” fanidan
Yakuniy nazorat savollari

1. Jamoatchilik bilan aloqalarning metodologik asoslari qaysi manbalarda bayon etilgan?
2. Jamoatchilik bilan aloqalar va Axborot xizmatlarining huquqiy asoslari qaysi qonun, qaror hamda boshqa hujjatlarda bayon etilgan?
3. Jamoatchilik bilan aloqalarning nazariy asoslari qaysi fanlarda ilmiy tadqiq etilgan?
4. Jamiyat taraqqiyotida jamoatchilik bilan aloqalarning o‘rnini qanday tasavvur etasiz?
5. Jamoatchilik bilan aloqalar mohiyati nimalardan iborat?
6. PR, piar deganda nimani tushunasiz?
7. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2017 yil 27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlariga yo‘llagan tabrigida xalq bilan muloqot borasida qanday g‘oyani ilgari surgan?
8. Jamoatchilik bilan aloqalar va Axborot xizmatlarining huquqiy asosi qaysi qonunda aniq belgilab qo‘yilgan?
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 17 fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 125-qarorida mansabdor shaxslar oldiga qanday vazifalar qo‘yilgan?
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 fevral kuni qabul qilingan “Axborot sohasi va ommaviy kommunikasiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida matbuot xizmatlari faoliyatiga oid qanday tanqidiy fikrlar qayd etilgan?
11. Tashkilotning jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirishni kimlar yo‘lga qo‘yadi?
12. Axborot xizmatlarida asosan qaysi soha mutaxassisleri faoliyat ko‘rsatishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi?
13. Axborot xizmati xodimi o‘qimishli bo‘lishi zarur, deganda uning qaysi fazilatlarini tushundingiz?

14. Sobiq SSSR davrida “Pablik rileyshnz” – “Jamoatchilik bilan aloqalar” faniga munosabat qanday edi?
15. Nima uchun piar fan sifatida MDH respublikalariga juda kech etib keldi?
16. Ijtimoiy hayotda “Jamoatchilik bilan aloqalar” tushunchasi paydo bo‘lishi va tayyorgarlik bosqichi haqida nimalarni bilasiz?
17. Piar fan sifatida dastlab qaysi mamlakatda pado bo‘ldi?
18. “Jamoatchilik bilan aloqalar” rivojlanishi oraliq bosqichi qaysi davrni o‘z ichiga oladi?
19. Piar kasb sifatida qaerda va nechanchi asrda shakllandi?
20. Siyosat maydonida “jamoatchilik bilan aloqalar” iborasini kim va qachon iste'molga kiritgan?
21. Ijtimoiy hayotda “Jamoatchilik bilan aloqalar” tushunchasi paydo bo‘lishining asosiy bosqich qaysi davrlarni o‘z ichiga oladi?
22. Piarning mutaxassislik va ommaviy professional faoliyat sifatida shakllanishi qay tariqa yuz berdi?
23. Piarni nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirishda professor Edvard Bernayz qanday vazifalarni bajardi?
24. Qadimda Sharqda jamoatchilik bilan aloqalar masalasiga qanday qaralgan?
25. Qaysi maqollar zamirida jamoatchilik bilan aloqalarga taalluqli fikrlar bor?
26. Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asarida jamoatchilik bilan aloqalarga oid qanday fikrni anglash mumkin?
27. “Temur tuzuklari” kitobida avvalida jamoatchilik bilan aloqalarga oid qanday fikrni anglash mumkin?
28. “Suqrot usuli” deganda nimani angladingiz?
29. “Rublic Relations” (Pablik rileyshnz – PR, piar) – Jamoatchilik bilan aloqalarni fan sifatida qanday izohlaysiz?
30. Jamiyatda jamoatchilik bilan aloqalar qanday maqsadlarga xizmat qiladi?
31. Tashkilotning jamoatchilik bilan aloqalari qanday yo‘lga qo‘yiladi?
32. Ikki tomonlama fikr eshitish jarayonini qanday izohlaysiz?
33. PRning asosiy maqsadi nima?
34. PRning bosh vazifasi nimalardan iborat?
35. Jamoatchilik bilan aloqalar, ya'ni, PRga shu kungacha mutaxassislar tomonidan qanday ta'riflar berilgan? (Birortasini misol keltiring).
36. Jamoatchilik bilan aloqalar (PR) – bu boshqaruvning maxsus funksiyasi, deganda nimani tushunasiz?
37. Sem Blek PRni fan sifatida qanday ta'riflagan?
38. Tashkilot muayyan maqsadlariga erishishi uchun mutasaddilar va mas'ul shaxslardan nimalar talab qilinadi?
39. Boshqaruv funksiyasi sifatida jamoatchilik bilan aloqalar qay yo‘sinda amalga oshiriladi?
40. Jamoatchilik bilan aloqalar sohasi professional amaliyotda qaysi fanlarga oid bilimlarni ko‘proq talab qiladi?

41. Tashkilot bilan jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro manfaatli aloqalarni qanday izohlaysiz?
42. Jamoatchilik bilan aloqalarning mohiyatini qanday tushunasiz?
43. Ijtimoiy institut deganda nimani tushunasiz?
44. Piar qanday qilib ijtimoiy institut darajasiga ko'tarildi?
45. Ayvi Ledbetter Li haqida nimalarni bilasiz?
46. Ayvi Lining "Tamoyillar Deklarasiyasi"da qanday g'oyalar ilgari surilgan?
47. Piarning global xususiyati haqida nimalarni bilasiz?
48. Piarni ijtimoiy institut sifatida qaysi darajalarini bilasiz?
49. Piarning qaysi xalqaro tashkilotlarini bilasiz?
50. Axborot yordamida jamoatchilik fikrini boshqarish, deganda nimani tushunasiz?
51. Jamiyat taraqqiyotida jamoatchilik bilan aloqalar – xalq bilan muloqotning o'rnini qanday tushunasiz?
52. Harakatlar strategiyasidan ko'zlangan asosiy maqsadlar nimalardan iborat?
53. Bugungi kunda OAV va Axborot xizmatlari zimmasiga qanday vazifalar yuklatilmoqda?
54. OAV oshkoralik minbariga aylanishida Axborot xizmatlari qanday o'rin tutadi?
55. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashda OAV qanday o'rin tutadi?
56. Jamoatchilik fikrini shakllantirishda OAVning roli qanday bo'ladi?
57. «Pablik rileyshnz – bu san'at va fan» deganda nimani tushunasiz?
58. Piar – bu axborotni boshqarish, degan tushunchani qanday izohlaysiz?
59. Piarning falsafa fani bilan qanday uzviy jihatlarini bilasiz?
60. Piar va iqtisodiyotning qanday uzviy jihatlarini bilasiz?
61. Piar va huquqning qanday uzviy jihatlarini bilasiz?
62. Piar va siyosatshunoslikning qanday uzviy jihatlarini bilasiz?
63. Piar va madaniyatshunoslikning qanday uzviy jihatlarini bilasiz?
64. Piar va ijtimoiy psixologiyaning qanday uzviy jihatlarini bilasiz?
65. Piarning asosiy vazifasi – ziddiyatli vaziyatlarga yo'l qo'ymaslik, degan fikrni qanday izohlaysiz?
66. Piar va menejmentning qanday uzviy jihatlarini bilasiz?
67. "Boshqaruv" – "menejment" – "piar" tushunchalarining o'zaro munosabatlarini qanday izohlaysiz?
68. Piar va reklamaning qanday uzviy jihatlarini bilasiz?
69. Piar va targ'ibotning farqi nimada?
70. Piar va jurnalistikaning qanday uzviy jihatlarini bilasiz?
71. Axborot xizmatining huquqiy asoslari qaysi qonun va qarorlarda belgilangan?
72. Tashkilotda Axborot xizmati qanday tashkil etiladi?

73. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonunida Axborot xizmati haqida qanday me‘yorlar mavjud?
74. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 125-sonli qarorida asosan qanday vazifalar belgilangan?
75. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 iyundagi “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta‘minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori da asosan qanday vazifalar belgilangan?
76. O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni Axborot xizmati faoliyatida qanday o‘rin tutadi?
77. O‘zbekiston Respublikasining “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni Axborot xizmati faoliyatida qanday o‘rin tutadi?
78. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda OAV qanday o‘rin tutadi?
79. Jamoatchilikni davlat organlari faoliyati haqida boxabar qilish mexanizmlari qanday amalga oshiriladi?
80. Axborot xizmati va jurnalistikaga oid qonun va qarorlarning piarga qanday aloqasi bor?
81. Piar mutaxassislari ommaviy munosabatlarni qanday ranglarga bo‘yab talqin qilishadi?
82. Oq piar deganda nimani tushundingiz?
83. Qora piar deganda nimani tushundingiz?
84. Piarning yana qanaqa ranglarini bilasiz?
85. Qora piarning maqsadi nima?
86. Qora piar bilan asosan kimlar shug‘ullanadi?
87. Jamiyatda qora piar eng faol vaqti qachon qo‘llaniladi?
88. Oq targ‘ibot deganda nimani tushunasiz?
89. Kulrang targ‘ibot deganda nimani tushunasiz?
90. Qora targ‘ibotning qanday xavfli xususiyatlarini bilasiz?
91. Oq va qora piar o‘rtasidagi farq nimada?
92. «Jinsa» deganda nimani tushunasiz?
93. Qora piar texnologiyalari, deganda nimalarni tushunasiz?
94. PRning axloqiy asoslari qanday hujjatlar bilan belgilangan?
95. Piar xodimining axloqiy qoidalari nimalardan iborat?
96. Piar etikasi deganda nimalarni tushunasiz?
97. Huquqiy me‘yor deganda nimalarni tushunasiz?
98. PRda odob-axloq qoidalariga oid qaysi kodekslarni bilasiz?
99. PRning OAV bilan qay darajada aloqador ekanligini qanday izohlaysiz?
100. Jamoatchilik bilan aloqalarni jurnalistika bilan uyg‘unligini qay holatlarda kuzatish mumkin?


101. Reklamalar takomillashuvida PRning o'rnini qanday?
102. Reklama samarali bo'lishi uchun qanday zamonaviy usullardan foydalanish kerak?
103. Reklama va piarning qanday uzviy jihatlarini bilasiz?
104. Reklamani asosiy iste'molchilari kimlar hisoblanadi?
105. Reklama tovarga qiziqtirishini, piar esa tushuntirishini qanday izohlaysiz?
106. Tinglovchilar reklama chiqishlariga tanqidiy qarashini qanday izohlaysiz?
107. Piarning aholi orasidagi obro'si reklamaga nisbatan ustunroqdir, degan fikrni qanday izohlaysiz?
108. PR – reklama samaradorligiga qanday ta'sir qilishi mumkin?
109. Reklama ta'rifini qanday tushunasiz?
110. Reklama tarixiga oid qanday e'tiborga molik ma'lumotlarni bilasiz?
111. Reklama qanday vazifalarni bajaradi?
112. Reklamani qanday turlarini bilasiz?
113. Reklamani lug'aviy ma'nosi qanday?
114. Reklama qanday axborot turiga kiradi?
115. Reklama beruvchi qanday shaxs hisoblanadi?
116. Reklamadan foydalanuvchi qanday shaxs hisoblanadi?
117. Reklama mahsuloti nimalardan iborat?
118. Ilk reklama alomatlari qayerda paydo bo'lgan?
119. Reklamani asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
120. Reklama qanday amalga oshiriladi?
121. Reklamani marketing (bozor) vazifasi nimalardan iborat?
122. Reklamani kommunikativ (yoki informasion) vazifasi nimalardan iborat?
123. Reklamani ma'rifiy vazifasi nimalardan iborat?
124. Reklamani iqtisodiy vazifasi nimalardan iborat?
125. Reklamani ijtimoiy vazifasi nimalardan iborat?
126. Xorijiy reklama turlariga qaysi reklamalar kiradi?
127. Umummilliy reklama turlariga qaysi reklamalar kiradi?
128. Hududiy reklama turlariga qaysi reklamalar kiradi?
129. Reklama matnini yozishda qanday talablar qo'yilgan?
130. Reklama matnlarida qanday nuqsonlarni bilasiz?

Tuzuvchi:



dots. T.Eshbekov

Kafedra mudiri:



dots. Mirsoatova. M